



Obod qishloq

## TOSHKENT VILOYATI BEKOBOD TUMAN HOKIMI F A R M O Y I S H I

2022 - yil 23 - noyabr

254-10-135-F/22

Bekobod tuman hokimligi

### Mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-172-sonli "2022 — 2026-yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek Xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashining 2022 yil 29-oktabrdagi VI 59-93-10-135-K/22-sonli qarori, tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022-yil 24-oktabrdagi 478-sonli xati ijrosini ta'minlash hamda tuman hokimi o'rinbosari U.Xaqqulovning bildirishnomasi bilan tanishib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan

1. Bekobod tuman mahalliy byudjetining 2022-yil 3-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan tumanda 2022-yil "Obod qishloq" dasturini amalga oshirishni izchil davom ettirish orqali aholining turmush darajasini yanada yaxshilash hamda mahalla arxitektura qiyofasini o'zgartirish maqsadida tuman manzilliy dasturiga asosan tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga **100,0 mln.so'm** ( yuz million) mablag' ajratilsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo'limi (M.Turdimatova) tegishli tartibda tuman mahalliy byudjeti parametrlariga o'zgartirish kiritsin.

3. Tuman G'aznachilik bo'linmasi (S.Mamasharipov), tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Parpiyev) ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimi o'rinbosari (U.Xaqqulov) mahalliy byudjetning

qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larning sarflanishi va natijadorligi to'g'risidagi hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etsin.

5. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari S.Beknazarov va tuman hokimi o'rinbosari U.Xaqqulov zimmlariga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**F.Xudoyberdiyev**